ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№1
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 442 sahifa,
5-yanvar, 2026-yil.



**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***



Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Talabalarda tolerantlikni shakllantirish zarurati va samaradorligi ..... 28
**Bafayev Muxiddin Muxammadovich**

Muhandislik grafikasi bo'yicha raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda grafik dasturlardan foydalanish metodikasini yaratish ..... 34
**Axmatova Asila Akmaljon qizi**

Investigation on the Efficacy of Pedagogical Approaches in Virtual Learning ..... 37
**Burkhonova Zarafruz Qobilovna, Makhmudov Shaxboz Muzzafarovich**

The Role of Input And Interaction in Second Language Acquisition ..... 40
**Dilorom Poyonova**

Muhandislik yo'nalishida kartografiya fanini integratsiyalashgan holda o'qitish ..... 45
**Kazakbayeva Muxabbat Turabayevna**

Incorporation of Moocs Into the Digital Educational Framework for the Development of Professional Speech Culture ..... 49
**Kudrat-Zoda Kamola Alisherovna**

Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process ..... 52
**Makhmudova Ugiloy Baxtiyarovna**

Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning media savodxonligini rivojlantirish ..... 57
**Mirzayeva Mayramxon Zaynobiddinovna**

Transformatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish ..... 61
**Mirzayeva Ziyoda Uktamjonovna**

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish ..... 65
**Qurbonboyeva Gulnoza Mahmud qizi**

An Online Service that Integrates Up-To-Date Content From Well-Known Mooc Platforms ..... 68
**Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Abdurahmonova Osiyo Jahongirovna**

The Fourth Phase of Distance Education: Integrated Technologies and Moocs ..... 71
**Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, TaranenkoTatyana Viktorovna**

Gamifikatsiya orqali iqtidorli o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish ..... 74
**Rustamova Manzura Mirkamolovna, Xaytbayeva Malika Qobil qizi**

Boshlang'ich ta'lim fanlarini didaktik o'yinlar orqali tushuntirish ..... 77
**Rustamova Manzura Mirkamolovna, Shomaxsudova Diyora Dilshod qizi**

O'smirlar orasida alkogolizm, giyohvandlik va toksikomaniya profilaktikasi ..... 80
**Sh. F. Mustafayeva**

Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students ..... 85
**Turayev Alimjan Bahriddinovich**

The Problems of Remote Learning Technology and Global Trends in University Education Development ..... 88
**Tursunov Begzod Sherzodovich, Shukurova Madina**

A Case Study of Humanities Disciplines Using Massive Open Online Courses as a Resource for Blended Learning ..... 91
**Tursunov Begzod Sherzodovich, Eshkabilov Kodirali Davlatmuratovich**

Modern Education and Training Practices for Future Dentists ..... 94
**Turumova Marjona Bahodirovna**

Kommunikativ yondashuv asosida nutqiy kompetensiyani shakllantirish ..... 98
**Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna**

Maktabgacha ta'lim jarayonida mutaxassislik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar: amaliy muammolar va ularning innovatsion yechimlari ........ 102
Xabibulayeva Shaxrizoda O'ktam qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarda nutq o'stirish darslari orqali Soft Skills ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy pedagogik psixologik asoslari ........ 106
Xoldarova Mubina Qudratbek qizi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit va uning turlari ........ 110
Xolmirzayeva O'g'iloy Murotali qizi

Развитие компетенций студентов-биологов в изучении языков ........ 114
Абдуллаева Нигора Курбановна

Формирование интереса и повышение эффективности школьного урока физической культуры ........ 118
Мукимов Олим Эргашевич

Incorporation of Massive Open Online Courses Into the Higher Education Framework ........ 122
Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Nasrullayev Javlonbek Tal'atjonovich

Совершенствование инновационной методики социально-педагогической деятельности будущих педагогов в полилингвальной среде с использованием искусственного интеллекта ........ 125
Хужаниязова Гузаль Юлдашевна

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodi asosida rivojlantirish ........ 130
Abduraximova Muxabbat Allayevna

Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'rganiladigan nostandart masalalar ........ 133
Karimova Kunduz Ruzibayevna, Yo'ldosheva Tojigul Ulug'bek qizi

Video-marketingning iste'molchilar jalb qilinishiga ta'siri: Tiktok va Youtube misolida ........ 138
Rustamova Ma'mura Asqar qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv jarayonlarini diagnostika qilish ........ 141
Shorustamboyeva Shahnoza Ulug'bekovna

The use of Visualization Technology as a New Trend in Teaching the English Language ........ 144
Tursunoy Ortiqova

Didaktik drama asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda narrativ yondashuvning asosiy tushunchalari tahlili ........ 149
Xolbayeva Dildora Azizovna, Sadiyeva Shaxnoza Xusanovna

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini o'qitishda work-based learning metodikasini qo'llash ........ 153
Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi

Bo'lajak shifokorlarni tibbiy amaliyotga tayyorlash metodikasini takomillashtirish ........ 156
Murtazayeva Nasiba Komiljonovna

Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish ........ 159
Xusnidinova Saodat

Muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali usullari ........ 163
Djumayeva Dildora Isroilovna

Integrating Quizlet, Kahoot, and Padlet Into Vocabulary Instruction: An Experimental Study With Undergraduate Philology Students ........ 167
Inoyatova Umida Boxadir kizi

Advantages and Disadvantages of Teaching Students Via Competent Based Approach in Order to Improve Their Listening and Speaking in Finland ........ 171
Abdukhakimova Kamola Akmalovna, Rahmatova Mohijahon Ahmad qizi

Kimyo ta'limida iqlim o'zgarishlariga oid ilmiy ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish ........ 175
Akbarova Saidaxon Rustamovna

Tibbiyot oliy ta'limida pediatriya talabalari klinik fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta'lim metodlarining roli ........ 180
Atadjanova Shaira Xalilovna, Umarkulov Muxtorali Islomkulovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Individual ta'lim muhiti asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy-metodik tayyorlashni takomillashtirish ........ 185
**Azamatova Dildora Shuxrat qizi**

Boshlang'ich ta'lim-tarbiya tizimida raqamli ta'limni joriy etishning innovatsion yondashuvlari va samaradorlik omili ........ 189
**Babayeva Dilnoz Xaydarovna**

O'qish savodxonligini oshirishda xalqaro tadqiqotlarning o'rni (PISA va PIRLS) ........ 192
**Barakayeva Shahnoza Fazliddin qizi**

Yosh rahbarlarda boshqaruv stressining namoyon bo'lishi va boshqaruv faoliyatiga moslashuv muammolari: ta'lim tizimi sharoitida psixologik holat tahlili ........ 195
**Djavgarova Dilfuza Shuxrat qizi**

Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlardan foydalanish asosida oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish strategiyalari ........ 199
**Duvlayeva Nozigul Xolmuxammat qizi**

Enhancing English Learners' Pronunciation Through AI-Based Language Applications ........ 203
**Egamova Munisa Khakim kizi**

Maktab ta'lim tizimining dars jarayonlarida elektron qo'llanmalardan samarali foydalanish ........ 208
**Kodirov Akbar Shuxratovich**

Improving the Methodology of Teaching Biochemistry in Medical Higher Education Institutions Through Virtual Laboratory Tools ........ 213
**Mamadaliyeva Zarina Rakhmat kizi**

O'smirlarda kommunikativ tolerantlik muammosining nazariy-metodologik asoslari ........ 218
**Mirsidikova Aziza Mirvohidovna**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sog'lom turmush tarzini tashkil etishning nazariy asoslari ........ 221
**Muxtorova Xusnidaxon Abdug'oporovna**

Improving the Theoretical and Methodological Foundations for Integrating Generative Artificial Intelligence Technologies Into English Language Teaching in Higher Education ........ 226
**Nigmatova Nozimakhon Ulugbek kizi**

Maktabgacha ta'lim va oila hamkorligi: zamonaviy yondashuvlar va ilmiy asoslar ........ 229
**Omondavlatova Diyora Otabekovna**

Oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarning ilmiy va ijodiy kompetensiyalarini aniqlashga yo'naltirilgan axborot tizimini yaratish ........ 233
**Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Ro'zimatova Saidaxon Abdivoxid qizi**

O'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash pedagogik muammo sifatida ........ 237
**Qodirqulov Nodirbek Hamroqul o'g'li**

Oliy ta'lim tizimida talaba-qizlarning kasbiy, madaniy va kommunikativ faoliyatlarini samarali tashkil etish ........ 242
**Qurbonova G. M.**

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida refleksiv yondashuvning metodologik asoslari ........ 245
**Raxmatova Shaxnoza Oybek qizi**

Inkluziv ta'limda pedagogik diagnostika: maxsus ehtiyojli o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholash ........ 248
**Norqobilova Rayxona Davlatovna**

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari ........ 252
**Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi**

Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process ........ 254
**Shaymatova Aziza**

Dasturiy-metodik majmuani ishlab chiqish bosqichlari hamda pedagogik talablar ........ 259
**Soliyeva Gavharoy Yodgorjon qizi**

Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda pedagogik metod va o'yinlarning samaradorligi ........ 265
**Suyarova Orzigul Sodiq qizi**

Yoshlarni nikohga tayyorlashda shaxsiy omillar va psixologik yetuklik........ 269
To'xtamatova Nargizaxon Abdullayevna, Buranova Sevara Sa'dullayevna

O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida rahbarlarning liderlik kompetensiyalarining hozirgi holatini diagnostika qilish ........ 273
Taylakova Dilnoza Norbekovna, Latifova Mavjuda Xurramovna

Ta'limga o'qib tushunishni sun'iy intellekt bilan integratsiya qilish imkoniyatlari va pedagogik strategiyalari........ 276
Umarov Bahrom Norboyevich

Talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari........ 281
Xabibullayev Alimardon Xidoyatillayevich

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati........ 286
Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi

Boshlang'ich sinflarda chet tilini o'rganishning ahamiyati va undagi zamonaviy yondashuvlar ........ 289
Yoqubjonova Mohlaroyim Abdumalik qizi

O'smir shaxsida refleksiyani shakllanishida ota-ona munosabatlarning ta'siri ........ 292
Yulchiboyeva Dilfuza Ergashevna

Boshlang'ich ta'limda geymifikatsiya orqali til kompetentligini rivojlantirish........ 297
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Nurmuhammedova Dilshoda Zaynobiddin qizi

Профессиональная этика педагога высшего учебного заведения ........ 302
Журабекова Хабиба Мадаминовна

Ortodontiyada mioterapiya: miogimnastik dentoalveolyar apparatlarni qo'llashning taqqoslama tavsifi ..... 305
Tursunov Begzod Sherzodovich, Sayfulayeva Aziza Anvarovna

Музейная педагогика на уроках воспитания в средней школе: методика включения музейных практик в процесс обучения и воспитания подростков ........ 308
Умрихина Виктория Игоревна

21St Century Dental Innovation Technologies: An Overview ........ 314
Khojimurodov Burkhon Ravshanovich

Цели и задачи педагогических систем, основанных на конструктивизме в общеобразовательных школах........ 317
Шарипова Шаҳноза Шавкат кизи

Способы повышения мотивации учащихся при изучении русского языка........ 321
Эшонкулов Хамрокул Маматкулович

Yosh sportchilarda jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda funksional mashqlarning ahamiyati........ 326
Aminov Botir Umidovich

Nutqiy faoliyatda fikr va til tizimlari........ 330
Axmedova Muyassar Xadimatovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish psixologiyasi ........ 333
Axmedova Muyassar Xadimatovna, Halimova Gulasal Xamroqulovna

10–12 yoshli tennischilarda texnik tayyorgarlik samaradorligini oshirish uslubiyati ........ 336
Axmedova Nafisa Isaxodjayevna

Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish masalalarining ilmiy tadqiqi........ 340
Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna

Musobaqa oldi bosqichida tennischilarning maxsus jismoniy sifatlarini kompleks mashqlar yordamida rivojlantirish uslubiyati........ 345
Azamatov Abdullo Isaxo'ja o'g'li

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuv ........ 349
Choriyeva Durdona Anvarovna, Po'latova Mahfuza To'lqin qizi

Xorij olimlari tadqiqotlarida mustaqillik sifatini rivojlantirishga oid yondashuvlar ........ 354
D. A. Saliyeva

Milliy adabiyot namunalari yordamida talabalar tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari ........ 358
Eraliyeva Dilnoza Oybek qizi

Oliy ta'lim tizimida tyutorlik institutini rivojlantirishning dolzarb masalalari ... 362
Kandaxarov Zafar Ishratovich, Tajibayeva Komila Taxirjonovna

Integrating Communicative and Task-Based Approaches in English Language Teaching Within a Learner-Centered Framework ... 366
Madinabonu Farkhodova

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijobiy munosabatlarni shakllantirish usullarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ... 370
Mirsaitova Guzal Baxodirovna

Ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari ... 373
Mamatova Dilnoza Bekpo'latovna

7-sinf biologiya kursini o'qitishda o'quvchilarning metodologik savodxonligini shakllantirish ... 377
Mirzayeva Nigoraxon Ibrohimjon qizi, Azimov Bekjon Ibrohimjon o'g'li

10–12 yoshli belbog'li kurashchilarini o'quv-mashg'ulot jarayonida koordinatsion qobiliyatlarni takomillashtirish ... 380
Mirzoqulov Sh. A.

Pedagog xodimlarning malaka-mahoratini oshirish – samaradorlik omili ... 384
Musurmonova Mariya Burxonovna

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligini tizimli yondashuv asosida boshqarishning pedagogik mexanizmlari ... 387
Muxamatova Gulmira Erkinjon qizi

Zamonaviy o'zbek tilida so'z tartibi va sintaksis xususiyatlari ... 392
Narimova Gulnora Abdumannonova

Ilmiy va innovatsion boshqaruv yondashuvlari orqali o'quv jarayoni samaradorligini oshirish texnologiyalari ... 396
Norbo'tayev Baxtiyor Abduraximovich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida algebraik fikrlashni rivojlantirishda mental arifmetikaning o'rni va roli ... 400
Nurillayev Samad Safarovich, Qodirova Nilufar

Bolalarning sportga oid ta'lim-tarbiya madaniyatini shakllantirish omillari va yo'nalishlari ... 405
Ochilov Jonibek Abdo'xomid o'g'li, Rishad Badayev

Raqamli ta'lim jarayonida pedagoglarning AKT va media savodxonligini oshirish bo'yicha samarali metodik yondashuvlar ... 408
Rashidov Sherzod Abdirayimovich

Didaktik o'yinlar yordamida o'quvchilarning ona tiliga doir bilimlarini mustahkamlash ... 413
Raxmataliyev Sherzod

Bosh harflar ramzga aylanganda: monogrammaning zamonaviy grafik dizayndagi ahamiyati ... 416
Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich

Ta'limning raqamli transformatsiyasi sharoitida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini faollashtirish usullari ... 420
Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Tursunova Saida Soliyevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida noverbal muloqot kompetensiyasini shakllantirish metodlari ... 423
Xolmo'minova Bahora Abdujalolovna

Frustratsiya holatining psixologik mohiyati va uni yengish mexanizmlari ... 426
Y. E. Sobirov

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ertaklarni hikoya qilishda motiv va syujetning tarbiyaviy ahamiyati ("Pahlovon Rustam" ertagi misolida) ... 430
Zulayxo Nazarova, Farangiz Mardiyeva

Oliy ta'lim muassasalarining rasmiy vebsaytlari sifatini oshirishda sun'iy intellektdan neft va gaz sohasida foydalanish muammolari ... 433
Tajetdinova Gulnara Abatbay qizi

Развивать личностные качества учащихся на уроках географии ... 437
Шадиева Нигора Шариповна, Нуруллоева Нилуфар Рузимбоевна

# TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Mamatova Dilnoza Bekpo'latovna
O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti doktoranti (DSc)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sun'iy intellektdan ta'lim sohasida samarali foydalanish imkoniyatlari keng yoritib berilgan. Unda xorij olimlarining SI borasida olib borgan tadqiqotlari ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining talabalar nutqini takomillashtirishdagi o'rni, ularning didaktik asoslari va samarali foydalanish metodlari ham tahlil qilinadi. Maqolada ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning zamonaviy imkoniyatlari yoritilgan. Sun'iy intellekt asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining didaktik ahamiyati, uning o'quvchilarning bilim olish jarayonini individuallashtirish, adaptiv o'qitishni amalga oshirish hamda ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarining o'qituvchi faoliyatini qo'llab-quvvatlash, baholash jarayonini avtomatlashtirish va mustaqil ta'limni rivojlantirishdagi imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, ta'lim texnologiyalari, raqamli ta'lim, adaptiv o'qitish, individuallashtirilgan ta'lim, ta'limda innovatsiyalar, pedagogik jarayon, ta'lim samaradorligi.

**Abstract:** This article examines modern opportunities for the use of artificial intelligence technologies in the education system. The didactic significance of artificial intelligence–based instruction is analyzed, with particular attention to its role in personalizing learning, implementing adaptive instruction, and improving the effectiveness of the educational process. The article also highlights the potential of artificial intelligence in supporting teachers' professional activities, automating assessment processes, and promoting learners' independent study.

**Key words:** artificial intelligence, educational technology, digital education, adaptive teaching, individualized education, innovation in education, pedagogical process, educational effectiveness.

**Аннотация:** В статье рассматриваются современные возможности использования технологий искусственного интеллекта в системе образования. Анализируется дидактическое значение применения искусственного интеллекта в учебном процессе, его роль в индивидуализации обучения, реализации адаптивного обучения и повышении эффективности образовательного процесса. Особое внимание уделяется возможностям поддержки педагогической деятельности преподавателя, автоматизации процесса оценивания и развитию самостоятельного обучения обучающихся на основе технологий искусственного интеллекта.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, образовательные технологии, цифровое обучение, адаптивное обучение, индивидуализированное обучение, инновации в образовании, педагогический процесс, эффективность обучения.

## KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishi o'quvchilarning bilim olish jarayonini individuallashtirish, o'qitish samaradorligini oshirish hamda pedagogik jarayonlarni optimallashtirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Sun'iy intellekt asosida yaratilgan tizimlar o'quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish, ularning ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv materiallarini taklif etish, baholash jarayonini avtomatlashtirish va teskari aloqani tezkor ta'minlash imkonini bermoqda. Zamonaviy ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish o'qituvchining rolini to'liq almashtirish emas, balki uning pedagogik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, metodik imkoniyatlarini kengaytirish va ta'lim sifati hamda natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt ta'lim jarayonida moslashuvchan o'qitish, adaptiv baholash, mustaqil ta'limni rivojlantirish va o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirishga imkon yaratadi.

Mazkur maqolada ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari, uning didaktik ahamiyati, afzalliklari hamda amaliy qo'llanilish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi bilan bog'liq muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari yoritib beriladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt (SI) vositalaridan foydalanish jarayoni jadallik bilan rivojlanmoqda. Bu jarayon talabalar uchun individualizatsiyalangan o'quv sharoitini yaratish, o'qitish jarayonini avtomatlashtirish va ta'lim samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. Og'zaki va yozma nutq talabalarning asosiy kommunikativ ko'nikmalaridan biri bo'lib, uni rivojlantirishga qaratilgan yangi didaktik yondashuvlar zarur bo'lib bormoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar global miqyosda amalga oshirilmoqda. Sun'iy intellektning ta'limga joriy etilishi masalasi zamonaviy pedagogika va didaktika sohasida tobora kengroq o'rganilmoqda. Siemens (2013) o'z tadqiqotlarida sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi ahamiyatini raqamli ta'lim paradigmalari bilan bog'liq holda baholaydi. Laurillard (2014) esa texnologiyalarni o'qitish jarayoniga moslashtirishning zarurligini ta'kidlab, ularning interaktiv yondashuvlardagi o'rnini izohlagan. Sun'iy intellekt yordamida individualizatsiyalangan ta'lim tizimlarini shakllantirish masalasi Anderson (2018) tomonidan keng tadqiq etilgan bo'lib, u shaxsiylashtirilgan o'quv jarayonlarining talabalarga ta'siri va natijaviyligini tahlil qiladi. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, AI asosida tuzilgan adaptiv ta'lim tizimlari o'quv jarayonining moslashuvchanligini ta'minlab, talabalar ehtiyojlariga mos ravishda bilim berish imkonini yaratadi. Inson tafakkurining rivojlanishida og'zaki va yozma nutq asosiy omillardan biri bo'lib, uning shakllanishi tafakkurning ijtimoiy va lingvistik omillar bilan bog'liqligini anglatadi. Vygotskiy (1986) fikricha, inson tafakkuri til orqali rivojlanadi va kommunikatsiya jarayonida mustahkamlanadi. Shu bois, zamonaviy AI texnologiyalari ushbu jarayonni tezlashtirish va osonlashtirish imkoniyatiga ega. Brown (2020) sun'iy intellekt vositalari, jumladan Grammarly va Quillbot kabi texnologiyalar, talabalarning yozma nutqini rivojlantirishga qanday ta'sir qilishini o'rgangan. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ushbu vositalar talabalarni grammatika va stilistik jihatdan mukammallikka intilishga undaydi. Smith (2021) esa talaffuz va ravonlikni oshirishda Google Speech Recognition va Otter.ai vositalarining samaradorligini baholagan. Ular nutqiy ravonlikni oshirishda real vaqtda tahlil va baholash imkoniyatlarini taqdim etishi bilan ajralib turadi. Biroq, ko'pchilik tadqiqotlar faqat texnologik jihatlarga urg'u berib, ularning didaktik asoslarini chuqur yoritmagan. Bu esa bizning tadqiqotimizga yangilik olib kirishga imkon yaratadi.

Sun'iy intellekt va inson tafakkuri o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar ko'plab falsafiy, psixologik va pedagogik tadqiqotlarning markaziy muammolaridan biridir. J. Searle (1980) "Xitoy xonasi eksperimenti" orqali sun'iy intellekt hech qachon inson tafakkuriga to'liq tenglasha olmaydi, chunki u faqat algoritmik asosda ishlaydi, deb ta'kidlaydi. Biroq, boshqa olimlar, masalan, N. Chomsky (2002), inson tafakkuri sun'iy intellektdan nafaqat hisoblash kuchi, balki semantik tahlil va yaratuvchanlik jihatidan ham farq qilishini qayd etadi. Bugungi kunda sun'iy intellekt inson tafakkurining o'ziga xos jihatlarini anglash va uni rivojlantirish uchun muhim vositaga aylanmoqda. M. Pinker (2018) sun'iy intellektning inson fikrlash jarayonlariga ta'siri haqida shunday yozadi: "Sun'iy intellekt inson tafakkuriga yordam beradigan vosita sifatida qaralishi kerak. U bilimga asoslangan tafakkur jarayonlarini optimallashtirish, tahlil qilish va yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi."

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

1. **Tahlil va sintez** – mavjud ilmiy adabiyotlar va SI texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rnini tahlil qilish uchun.
2. **Tajriba-sinov usuli** – talabalar nutqini rivojlantirishda SI vositalarining samaradorligini baholash uchun.
3. **Anketalar va intervyular** – talabalarning SI vositalari bilan ishlash bo'yicha fikrlarini aniqlash maqsadida.
4. **Eksperimental ta'lim modeli** – SI yordamida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan yangi o'quv yondashuvini sinovdan o'tkazish.

Tadqiqot O'zbekistonning turli universitetlarida tahsil olayotgan 100 nafar talaba ishtirokida olib borildi. Ular SI yordamida og'zaki va yozma nutqni takomillashtirish bo'yicha maxsus dastur asosida o'qitildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Inson tafakkuri sun'iy intellekt bilan integratsiyalashgan holda rivojlanishi mumkinmi? Ushbu savol atrofida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, AI vositalari yordamida mashq qilgan talabalar mantiqiy fikrlash, tezkor xulosa chiqarish va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda sezilarli natijalarga erishgan. Talabalar o'z nutqini mustaqil ravishda takomillashtirish uchun AI yordamida avtomatik baholash tizimlaridan foydalanish orqali

o'z-o'zini baholash qobiliyatini shakllantirgan. Bu esa metakognitiv tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi, chunki talabalar o'z xatolarini chuqur tahlil qilishga o'rganadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, AI vositalari yozma nutqni rivojlantirishda ancha samarali bo'lsa-da, og'zaki nutqni takomillashtirish uchun yanada murakkab vositalar kerakligi aniqlangan. Jumladan, talaffuz va ravonlik bo'yicha mashqlarga ChatGPT yoki Google Speech Recognition yetarlicha foyda bersa ham, muloqot jarayonida hissiy jihatlar va pragmatik omillar yetarlicha rivojlantirilmaydi. Shu sababli, AI yordamida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun robot-assistentlar, ovozli interaktiv tizimlar va virtual ta'lim muhitlarini kengroq joriy etish lozim.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, faqat AI vositalaridan foydalanish o'rniga, an'anaviy ta'lim bilan integratsiyalashgan model samaraliroq natija beradi. Bu degani, o'qituvchi nazorati va AI yordamida avtomatlashtirilgan baholashning kombinatsiyasi talabalar uchun eng yaxshi natijani beradi. Sun'iy intellektning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi haqida tadqiqotchilar turli fikrlarni bildirganlar. Anderson (2018) va Luckin (2019) o'z tadqiqotlarida sun'iy intellekt asosida ishlaydigan moslashtirilgan ta'lim tizimlari (adaptive learning systems) o'quvchilarga individual o'qitish imkoniyatini berishini ta'kidlaydilar. Masalan, Duolingo, ChatGPT, Grammarly kabi vositalar yordamida talabalar yozma va og'zaki nutqni takomillashtirishi mumkin. Biroq, ba'zi tadqiqotchilar sun'iy intellektning haddan tashqari ko'p ishlatilishi talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatiga salbiy ta'sir qilishi mumkinligini ta'kidlaydilar. T. Dunning (2020) va Carr (2013) o'z ishlarida "raqamli aqliy dangasalik" tushunchasini ilgari surib, inson miyasi o'z-o'zini rivojlantirishdan ko'ra, tayyor javoblarga suyanishga moyilligini qayd etganlar.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Sun'iy intellekt vositalari talabalarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, Grammarly va Quillbot kabi SI vositalaridan foydalangan talabalar yozma nutqining grammatik va stilistik sifatini 35% ga yaxshilagan. Google Speech Recognition orqali talaffuzi tahlil qilingan talabalar esa 20% yaxshiroq ravonlikka ega bo'ldi. SI asosida individualizatsiyalangan o'quv yondashuvi samarali bo'ldi. SI vositalari talabalarga shaxsiy kamchiliklarini avtomatik tahlil qilish va individual tavsiyalar olish imkoniyatini berdi. O'qituvchilar tomonidan o'tkazilgan an'anaviy baholashga qaraganda, SI tizimi orqali avtomatik baholash aniqroq va tezkor bo'lishi kuzatildi. SI bilan ishlash bo'yicha mashqlar tizimini joriy qilish lozim. Quyidagi mashqlar tizimi talabalar natijalarini yaxshilashga yordam berdi:

1. **Og'zaki nutq:** SI yordamida talaffuzni tahlil qilish, nutqni avtomatik matn holatiga o'tkazish va chatbotlar bilan suhbat mashqlari.
2. **Yozma nutq:** Matnni avtomatik tahrirlash, stilistik va grammatik xatolarni SI yordamida tahlil qilish.

Tavsiya etiladigan SI vositalari:

1. **Yozma nutq uchun:** Grammarly, Quillbot, Wordtune
2. **Og'zaki nutq uchun:** Google Speech Recognition, Otter.ai
3. **Interaktiv mashqlar uchun:** ChatGPT, Bard, Duolingo AI

Zamonaviy ta'lim tizimi kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilishini talab etadi. Ushbu yondashuv ta'lim oluvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llash, mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni hal etish va uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu nuqtayi nazardan, sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi didaktik jarayonlarni takomillashtirish va kompetensiyalarni samarali rivojlantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi.

Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalari didaktikaning asosiy komponentlari – maqsad, mazmun, metod, vosita va natijani uyg'unlashtirish imkonini beradi. Xususan, SI texnologiyalari o'quvchilarning individual qobiliyatlari, bilim darajasi va o'rganish sur'atini tahlil qilgan holda adaptiv o'qitishni amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu esa ta'lim jarayonining individuallashtirilishini ta'minlab, o'quvchilarning kognitiv faolligini oshiradi.

Didaktik jihatdan sun'iy intellekt o'qitish jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va monitoring qilish funksiyalarini qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, intellektual ta'lim platformalari o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini avtomatik tahlil qiladi, xatolarni aniqlaydi va shaxsiylashtirilgan tavsiyalar beradi. Natijada baholash jarayoni faqat nazorat vositasi emas, balki o'rganishni rivojlantiruvchi didaktik mexanizmga aylanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan, sun'iy intellekt texnologiyalari quyidagi asosiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi:

- kommunikativ kompetensiya (chat-botlar, virtual yordamchilar orqali muloqot);
- raqamli va axborot kompetensiyasi (ma'lumotlarni tahlil qilish, tanlash va baholash);

- o'quv-bilish kompetensiyasi (mustaqil o'rganish, refleksiya, o'z-o'zini baholash);
- ijodiy va muammoli fikrlash kompetensiyasi (sun'iy intellekt yordamida muammoli vaziyatlarni modellashtirish).

Sun'iy intellekt o'qituvchi faoliyatini to'liq almashtirmaydi, balki uning pedagogik rolini yangi sifat bosqichiga olib chiqadi. O'qituvchi bilim manbai emas, balki ta'lim jarayonini boshqaruvchi, yo'naltiruvchi va refleksiv faoliyatni tashkil etuvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat didaktik jarayonning subyekt-subyekt munosabatlariga asoslanishini kuchaytiradi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etishda didaktik me'yorlarga rioya qilish, pedagogik maqsadlarning ustuvorligini ta'minlash hamda axloqiy va metodik masalalarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Faqatgina texnologiyaga yo'naltirilgan yondashuv emas, balki pedagogik asoslangan, kompetensiyaviy natijalarga yo'naltirilgan integratsiya ta'lim samaradorligini oshiradi.

Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt vositalari talabalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatdi. AI yordamida talabalar mustaqil ravishda o'z nutqiy kamchiliklarini aniqlash va bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Didaktik jihatdan, SI texnologiyalari individualizatsiyalangan o'qitish, real vaqt rejimida baholash, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va o'zaro ta'sirning yangi shakllarini yaratish imkoniyatlarini taklif qiladi. Kelajakda SI vositalarini yanada integratsiyalash va O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ularni keng joriy etish bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Siemens, G. (2013). Learning Analytics: The Emergence of a Discipline. American Behavioral Scientist.
2. Laurillard, D. (2014). Rethinking University Teaching. Routledge.
3. Anderson, J. (2018). Artificial Intelligence in Education: Personalized Learning. Educational Review.
4. Brown, M. (2020). AI-Assisted Writing: The Impact of Grammarly and Quillbot on Student Writing. Journal of Writing Studies.
5. Smith, K. (2021). Speech Recognition Technology in Second Language Acquisition. Linguistics and AI Research Journal.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

**Mas’ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №1**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali 26.09.2023-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.